
MOBIL-ID TIZIMIDA RO'YXATDAN O'TISH UCHUN TO'LOV UNDIRILADIMI?



Mobil-ID tizimida ro'yxatdan o'tish uchun to'lov undiriladimi?

Bu haqda Abdumannof Umridinov - So'x tuman adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri qo'yidagilarni ma'lum qildi:

Bevosita davlat xizmatlari markazlari yoki notarial idora orqali fuqarolarni Mobil-ID tizimiga identifikatsiyalash 2022-yil 31-dekabrqa qadar to'lov undirmasdan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab BHMning 2 foizi miqdorida bir martalik to'lov undirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda, Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazish davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshirilganda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga to'lovning 50 foizi miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazilganligi uchun to'lov to'langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

YIDXPning mobil ilovasi orqali murojaat qilinganda bepul amalga oshiriladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-12-12 15:05:28